

BAYONNOMASI

Qatnashdilar: D.Rasulova, R.Xayitova

Fan: Tarjima nazariyasi va amaliyoti

Mavzu: *Multfilm va kino matnlari tarjimasi*

Guruh: 407

O'qituvchi: R.Ro'ziyeva

Sana: 8.11.2025

Darsning maqsadi: Talabalarga multfilm va kino matnlarini tarjima qilishda uchraydigan lingvistik, madaniy va texnik muammolarni tushuntirildi. Audiovizual tarjima turlari (subtitrlash, dublaj, ovoz ortidan tarjima) haqida bilim berish. Talabalarda tarjima jarayonida kreativ fikrlash, nutq ohangi va madaniy kontekstni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

O'qituvchi mavzuni e'lon qildi, darsning maqsadi va vazifalarini tushuntirdi. Talabalar bilan "Kino tarjimasi nima?" mavzusida qisqa suhbat o'tkazildi. Mashhur multfilmlar (*Shrek, Frozen, Kung Fu Panda* va boshqalar) tarjimalaridan qisqa lavhalar namoyish etiladi va ularning o'zbek tilidagi variantlari tahlil qilindi. Audiovizual tarjima turlari (dublaj, subtitr, voice-over) haqida ma'lumot berildi. Multfilm tarjimasida ohang, personaj xarakteri, so'z o'yinlari va hazil elementlarini saqlab qolish masalasi muhokama qilindi. Kino tarjimasida madaniy realiyalar, brend nomlari, idiomalar va tilga xos iboralarni o'girishdagi qiyinchiliklar tahlil qilindi.

Talabalar 3-4 kishilik guruhlariga bo'lindi. Har bir guruhga ingliz tilidagi qisqa multfilm yoki film parchasi berildi. Guruhlar matnni subtitr yoki dublaj shaklida tarjima qilib, o'z ishlarini taqdim etdilar. O'qituvchi va talabalar har bir guruh ishini tahlil qilib, afzallik va kamchiliklarni muhokama qildilar.

Darsning yakuniy qismida eng yaxshi tarjima namunasi e'lon qilindi. Talabalarning fikrlari tinglandi: "Bugungi mashg'ulot sizga nimani o'rgatdi?" O'qituvchi darsni umumlashtirdi: kino tarjimasi – bu so'zlarni emas, balki madaniyatni tarjima qilish san'ati ekanini ta'kidladi. Ochiq dars davomida talabalar kino va multfilm tarjimasi jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdi. Amaliy mashg'ulotlar ularning tarjima ko'nikmalarini rivojlantirdi, ijodiy yondashuvni kuchaytirdi va madaniy kontekstga e'tibor berishni o'rgatdi. Dars interfaol tarzda, yuqori faollik va qiziqish bilan o'tdi. Ushbu ochiq dars orqali talabalar audiovizual tarjima sohasida nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlashdi. Ular matn, tovush, obraz va madaniyat uyg'unligini saqlashning muhimligini angladilar.

Kafedra qarori:

1.O'qituvchi: Ro'ziyeva Rayhon Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan "Multfilm va kino matnlari tarjimasi" mavzusidagi ochiq dars tahlili ma'qullansin.

2. O'qituvchi R. Ro'ziyevaning o'tkazgan ochiq darsi talabga javob beradi va yuqori darajada tashkil etildi, deb hisoblansin.

Kafedra mudiri:

D.Tog'aymurodov

Kotiba:

I. Choriyeva



Multifilm va kino matnlari tarjimai

A. Ruziyeva



